

**MURAKKAB OILALAR ULARDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI
HAL QILISH YO'LLARI.**

A'zamova Zarnigor Farhodjon qizi
Farg'ona davlat universiteti tarix fakulteti
ijtimoiy ish kafedrası o'qituvchisi
Talaba: O.Fozilov

Annotatsiya. *Har bir oilada o'ziga yarasha muammolar uchrab turadi. Ba'zida shunday holatlar ham bo'ladiki, baxtli bir oila barbod bo'ladi. Hozirgi kunda bunday muammolar ko'payib ajrimlar soni ortib bormoqda. Shunday holatlarda ijtimoiy ish xodimlari ajrim holatidagi oilalarga to'g'ri yo'l ko'rsatib ularni yana baxtli oilalar safigan qaytarmoqda. Men ushbu maqolamda oilalarda uchravdigani muammolarni o'rganib ularni hal etish yo'larni yoritmoqchiman.*

Kalit so'zlar: *oila, murakkab oila, ijtimoiy ish, mahalla, oila kodeksi.*

Ma'lumki oilaning asosini — yadrosini er-xotin tashkil etadi. Oilada er-xotin, o'zi yoki farzandlari bilan etishadi. Undan tashqari oilada er-xotin farzandlari bilan birga ularning ota-onalari, aka-ukalari va boshqa qarindosh-urug'lari ham birga yashashlari mumkin. Oila muhit, uning jamoada tutgan o'mi oila a'zolariga, ularning xulq-atvorlariga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa oila muhitida ayolning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oila a'zolarining oilaga, atrof-muhitga va o'zaro munosabatlarini o'rganish ham oila sotsiologiyasining vazifalaridan biridir.

Murakkab oila - er-xotin, farzandlar va qarindoshlar - buvilar, bobolar, opa-singillar, opa-singillar va boshqalar. Bunday oila xo'jaligi boshqaruvini soddalashtirish uchun bir joyga to'plangan bir nechta turmush qurgan juftliklar bo'lishi mumkin.

Oila jamiyatning bir bo'g'in ixisoblanadi. Agar oilalarda tinchlik bo'lmasa, jamiyatga ham bu xolat salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun oilalar xotirjamligini ta'minlash, yangi oila qurish arafasida bo'lgan yoshlarga to'g'ri maslahat berib, oila muqaddas ekanligini tushuntirishimiz kerak. Hozirgi kunda ajrimlarga sabab bo'layotgan yana bir ayanchli holat yoshlarning erta turmush qurishidir. Hali hayot nimaligini yaxshi anglamagan, uning qiyinchiliklarini ko'rmagan, bir so'z bilan aytganda ona suti og'zidan ketmagan yoshlarning oila qurishi oilalarda ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi kunda bizning asosiy maqsadimiz shu muammolarni bartaraf etib oilalar farovonligini ta'minlashdir

O'z navbatida, umuminsoniy va milliy oilaviy qadriyatlarni tahlil qilish asosida zamonaviy, namunali oila mezonlarini belgilash hamda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy prinsipini keng targ'ib etish va jamiyatga singdirish masalalariga kompleksyondash ish faoliyatimizda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.²⁵

Xususan, oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an'analarni saqlab qolish hamda targ'ibot qilish

²⁵Oila pedagogikasi

masalalari bo'yicha hududlarda qator fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilayotir. Misol uchun, zamonaviy muvaffaqiyatli oila mezonlari qanday bo'lishi kerak, degan mavzuda respublikamizning turli viloyatlarida 800 dan ortiq oilalarda ijtimoiy so'rovlardan o'tkazilib, yakuniy natijalar bo'yicha zamonaviy oilaning modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot o'tkazilgan oilalar vakillarining fikrlariga ko'ra, oiladagi sog'lom va barqaror, osoyishta psixologik muhit; yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiya; yetarli darajadagi iqtisodiy va maishiy sharoitlar; oila a'zolarining ta'lif yo'nalishida oily ma'lumotlilik darajasi; sihat-salomatlilikka alohida e'tibor qaratish zamonaviy namunali oilaning asosiy mezonlari qatoriga kiradi.

Shu o'rinda har qancha achchiq bo'lmasin, ochiq aytish kerak, tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, keying paytlarda xalqimizga xos bo'lmanaytay illatlar — oilaviy ajrashishlar, turli nizoli vaziyatlar, ishsizlik, oiladagi nosog'lom muhit, ma'naviy tushkunlik, ehtiyojmandlik, jinoyatga qo'lurish holatlariga biomillar notinch, noqobil, kemptik oilalar va qator ijtimoiy-ma'naviy muammolarni paydo qilmoqda. Ayniqsa, ajrashishlar sonining kamaymayotgani kishida jiddiy tashvish uyg'otadi. Respublikamizning uchta viloyatida olib brogan tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, oilalar barbod bo'lishiga quyidagi omillar asosiy sababbo'lmoqda:

Psixologik omil — oiladagi og'ir psixologik muhit, o'zaro tushunishning yo'qligi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qo'yish, bir-biriga befarqlik;

Ijtimoiy omil — ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotinning salomatligi yaxshi emasligi;

Ma'naviy-axloqiy omil — er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohdan tashqari aloqalari;

Iqtisodiy omil — turar joy sharoitlarining qoniqarli emasligi, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, erving oilani ta'minlamasligi, mehnat migrant sifatida chet elga ketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilgani, qarzlarni uzolmaslik.

E'tirof etish lozim, hozirgi kunga qadar 11800 dan ortiq nizoli oilalarning ishi sudgayetib bormasdan, FHDYO organi va sudga ajrashish uchun ariza bergan 3100 dan ziyod oilalarni esa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda yarashtirishga erishildi. Umuman, buzilib ketish arafasida turgan 14645 ta oila saqlab qolindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. *Интернаука*, (7-2), 91-93.
2. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). The world in reforming the pension system use of existing pension system models in practice. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ* (pp. 50-51).
3. Аъзамова, З., & Турсуналиева, Э. (2022). РОЛЬ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЫ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 740-745.

4. Azamova, Z., & Tursunalieva, E. (2022). Reintegration of Persons Returning from Labor Migration and Their Employment. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 13, 122-126.

5. Tursunalieva, E., & Azamova, Z. (2022). Reintegration of Persons Returning from Labor Migration and Ensuring Their Employment. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 171-175.

6. A'ZAMOVA, Z. A. R. N. I. G. O. R., & FOZILOV, O. VOYAGA YETMAGAN BOLALARNI HUQUQ VA ERKINLIKHLARI. ИНТЕРНАУКА
Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 91-93.